

YOSH OILALARDA NIKOH VA NIKOHDAN TASHQARI MUNOSABATLARNING NAMOYON BO‘LISHI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-468-471>

Burxonova Yulduz Isroil qizi

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada yoosh oilalarida nikoh va nikohdan tashqari munosabatlar namoyon bo‘lishining sabab va omillari, oilalarning reproduktiv va demografik rivojlanishi, zamonaviy namunali oilaning mezonlarini belgilash nikohdan qoniqish darajalari ko‘rsatkichlari, nikohdan qoniqish darajasi bo‘yicha tafovutlar ko‘rsatkichlari, ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma natijalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar : yoosh oila, nikoh va nikohdan tashqari munosabatlar, sabab va omillar, namunali oila, zamonaviy oila, nikohdan qoniqish.

Аннотация. В статье рассматриваются причины и факторы проявления супружеских и внебрачных связей в молодых семьях, репродуктивное и демографическое развитие семей, критерии определения современной образцовой семьи, показатели удовлетворенности браком, показатели различий в удовлетворенности браком, а также результаты социально-психологического опросника.

Ключевые слова: молодая семья, супружеские и внебрачные связи, причины и факторы, образцовая семья, современная семья, удовлетворенность браком.

Abstract. The article discusses the causes and factors of the manifestation of marital and extramarital relationships in young families, the reproductive and demographic development of families, the criteria for determining the modern model family, indicators of marital satisfaction, indicators of differences in marital satisfaction, and the results of a socio-psychological questionnaire.

Keywords: young family, marital and extramarital relationships, causes and factors, model family, modern family, marital satisfaction.

Mamlakatimizda keyingi yillarda oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur masalada davlatimiz butun dunyo hamjamiyatida namuna bo‘lib kelmoqda. Shu ma’noda mamlakatimizda oilalarning reproduktiv va demografik rivojlanishi, zamonaviy namunali oilaning mezonlarini belgilash, oila-nikoh munosabatlari sohasidagi xalqaro va xorijiy tajribalarni amaliyotga tadbiq etish, notinch va muammoli Oilalarni aniqlash va ularning ijtimoiy-psixologik asoslarini yaratish hamda oilalardagi psixologik muhitni sog‘lomlashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi.

Shu masalaga oydinlik kiritish maqsadida, tadqiqotimizda nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash uchun juftliklarni o‘z nikohidan qoniqish darajalarini aniqladik. Buning uchun Y.Ye. Alyoshinaning

“Nikohdan qoniqish darajasini aniqlash” metodikasidan foydalandik. Olingan empirik natijalar 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval

Nikohdan qoniqish darajalari ko'rsatkichlari

T/p	Tasdiqlarning nomlanishi	Umumiy miqdor	X=2.09	%
1	Oilaviy hayot mobaynida sizning turmush o'rtog'ingizga bo'lgan munosabatingiz qanday o'zgardi?			
2	Agar o'tmishga qaytish mumkin bo'lganda edi, unda siz?	537	2,17	72.33
3	Sizning oilangizni axil oila, deb hisoblash mumkinmi?	543	2,19	73.00
4	Ko'pchilik o'rtoqlaringizning fikriga ko'ra, sizni turmush o'rtog'ingizdan rozi deb hisoblash mumkinmi?			
5	Siz turmush o'rtog'ingiz bilan har ikki tomonning qarindoshlariga qanday munosabatda bo'lish borasida kelisha olasizlarmi?			
6	Sizlarda oilangiz uchun jiddiy va uzoq oqibatlariga (masalan, siz yoki turmush o'rtog'ingizning uydan ketib qolish hollari) ega bo'lgan nizolar bo'lganmi?			
7	Turmush o'rtog'ingizning kundalik va oilaviy vazifalarini bajarishi va bajarayotganligidan mamnunligingiz qay darajada?			
8	Pulni qachon, nimaga sarf qilishda sizlar bir-birlaringiz bilan kelisha olasizlarmi?	516	2,08	69.33
9	Uyda sizlar bir-biringizni kayfiyatingizga tez-tez salbiy ta'sir qilib turasizlarmi?	451	1,82	60.67
10	Ishdan so'ng uyga qaytgingiz kelmay qolgan hollar (yoki uydan qayoqqadir ketish istagi) bo'lib turadimi?			
11	Sizda ajralish haqida fikr tug'iladimi?	580	2,34	78.00
12	Siz uyda o'zingizni qulay, xotirjam sezasiz, deb ayta olish mumkinmi?	556	2,24	74.67
13	Siz turmush o'rtog'ingizga nisbatan mehribonchilik, muloyimlikni tez-tez namoyon etib turasizmi?			
14	Turmush o'rtog'ingiz sizga nisbatan muloyim, mehribonchilikni qanday namoyon etadi?	486	1,96	65.33
15	Sizda qayoqqadir, qandaydir ma'lum bir muddatga boshqa yoqqa yolg'iz ketib qolish istagi bo'lib turadimi?			
16	O'z nikohingizni qanday baholaysiz?	546	2,20	73.33

Izoh: $x=2.09$. Oilaviy turmush staji bo'yicha nikohdan qoniqish darajasi

Bundan ko‘rinadiki, Y.Ye. Alyoshina metodikasidagi mezonlar bo‘yicha 5-10 yilgacha birga yashagan oilalarda nikohdan qoniqish darajasi past ekan (1,56). Eng yuqori natija 11 yil va undan ko‘p birga yashagan oilalarda kuzatildi (2.63). 11 yildan ortiq birga yashagan juftliklar oiladagi turli kelishmovchiliklardan chiqib ketish uchun to‘g‘ri yo‘l topa oladigan va oilaviy inqirozlardan o‘tganlari uchun nikohdan qoniqish darajasi yuqori. 5-10 yilgacha birga yashaganlar orasida bu ko‘rsatkich eng past darajada. Buni aynan shu davr (5-7 yil) oilaviy hayotdagi inqiroz davri ekanligi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqotimizda juftliklarni nikohdan qoniqish darajasini Y.Ye. Alyoshina, A.N. Volkovning PEA metodikalari bo‘yicha respondentlarning yoshi, oila yoshi bo‘yicha farqlar o‘rtasida quyidagicha empirik natijalar olindi.

Tadqiqotimiz uchun ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma olingan empirik natijalar orqali o‘zbek oilalarida nikohdan tashqari munosabatlarga kirishishga sabab bo‘ladigan omillarni aniqladik. Nikohdan tashqari munosabatlarga kirishishga quyidagi omillar ko‘proq yetakchilik qilishi ma‘lum bo‘ldi .

6-jadval

Ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma va A.N. Volkovning PEA metodikasini shkalalari bo‘yicha olingan natijalarning korrelyatsion tahlili

		O‘zaro tushunish	Hissiy intilish	O‘zaro hurmat	Umumiy miqdor
		O‘rtacha arifmetik qiymat ballda ko‘rsatilgan			
	sevgi, yoqtirish asosida	19,61	20,65	21,55	61,81
	ota-ona va qarindoshlar xohishiga ko‘ra				
	oilali bo‘lish uchun	19,60	15,20	16,20	51
	majbur bo‘lib qolib	18,00	16,00	14,00	48
	farzand ko‘rish uchun	16,00	12,00	18,00	46
	turmush o‘rtog‘ining moddiy ta‘minoti uchun				
	Jami	18,5	18,6	19,3	56,4
	sevgi, yoqtirish asosida	19,17	20,83	22,17	62,17
	ota-ona va qarindoshlar xohishiga ko‘ra				
	oilali bo‘lish uchun	18,24	16,40	17,12	51,76
	majbur bo‘lib qolib	21,00	22,00	20,00	63
	Jami	18,8	17,4	18,6	54,8
	sevgi, yoqtirish asosida	24,50	25,10	21,60	71,2
	ota-ona va qarindoshlar xohishiga ko‘ra			20,39	59,22
	oilali bo‘lish uchun	21,09	20,00	17,27	58,36

	yolg'izlikdan qutilish uchun	19,00	7,00	12,00	38
	majbur bo'lib qolib	18,00	10,00	11,00	39
	farzand ko'rish uchun	25,20	17,20	16,80	59,2
	Jami	20,6	20,3	19,2	60,1

Izoh: har bir shkala uchun $x=15$; $max=30$; umumiy miqdor – 90

Yuqoridagi jadvalda turli motivlarga ko'ra oila qurgan respondentlarimizning A.N. Volkovning “PEA” metodikasi omillari bo'yicha ko'rsatkichlari aks etgan. Natijalardan ko'rinib turibdiki, sevgi, yoqtirish motivi asosida oila qurib yashayotgan barcha turdagida oilalarda o'zaro tushunish, hissiy intilish va o'zaro hurmat omillari bo'yicha ko'rsatkichlar yuqori ekanligi ko'rishimiz mumkin. Oilaviy turmush staji bo'yicha eng past natijalar bir biridan farqli motivlar asosida oila qurib yashab kelayotgan juftliklarda kuzatiladi. Jumladan, 1–5 yilgacha birga yashab kelayotgan oilalarda eng quyi ko'rsatkich majbur bo'lib qolish (o'zaro tushinish – 18,00; hissiy intilish – 16,00 ball; o'zaro hurmat – 14,00 ball) va farzand ko'rish motivi (o'zaro tushinish – 16,00; hissiy intilish – 12,00 ball; o'zaro hurmat – 18,00 ball) asosida oila kurganlarda kuzatildi. 6–10 yilgacha birga yashayotgan oilalarda ota-ona yoki qarindoshlar xohishiga ko'ra oila qurganlarda hissiy intilish omili – 14,52 ball; o'zaro hurmat esa – 16,52 ballni tashkil qildi. 11 yil va undan ortiq yillar davomida birga yashayotgan oilalarda yolg'izlikdan qutilish motivi asosida hayot kechirayotganlarda hissiy intilish – 7 ball, o'zaro hurmat – 12 ballni tashkil qildi. Qanday motivlar asosida oila qurishish ham o'sha oilalarni muvaffaqiyatli yoki muvoffaqiyatsiz bo'lishini ta'minlovchi omil sifatida ko'rish mumkin.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, sevgi, yoqtirish motivi asosida oila qurganlarda nikohdan koniqish darajasi eng yuqori – 35,9 ballni, yolg'izlikdan qutilish uchun oila qurganlarni nikohdan qoniqish darajasi eng quyi natija – 19,5 ballni tashkil qildi.

Yuqoridagi tahlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, juftliklar orasida jinsiy hayotdagi bilim va ko'nikmalar o'rtasida tafovutlarni mavjudligi ularning o'z nikohidan qoniqish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatar ekan.